



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
BAJARILGAN QURILISH ISHLARI
ASOSIY KO'RSATKICHLARI**

2024- YIL YANVAR




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

2024- yil 1-fevral holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

Toshkent sh.	7 408
Farg'ona	2 947
Toshkent	2 907
Buxoro	2 592
Qashqadaryo	2 555
Samarqand	2 535
Surxondaryo	2 289
Andijon	2 117
Qoraqalpog'iston R.	1 901
Xorazm	1 755
Namangan	1 662
Jizzax	1 526
Navoiy	1 389
Sirdaryo	1 046

2024- yilning 1-fevral holatiga O'zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 34 629 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 7 408 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarning 21,4 % i Toshkent shahrida joylashgan.



Qurilish korxonalari soni, birlikda




Shuningdek, Farg'ona viloyatida 2 947 ta (respublika bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 8,5 %), Toshkent viloyatida – 2 907 ta (8,4 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI


2024- yilning yanvar oyida hududlar kesimida qurilish ishlari *hajmi mlrd. so'mda va o'sish sur'ati*



2024-yilning yanvar oyida, O'zbekiston Respublikasida jami 6 671,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 124,5 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi


o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan, % da, mlrd. so'm






2024- yilning yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 65,3 % i yoki 4 354,7 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yangi qurilish hajmi, mlrd. so'm





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

2024- yilning yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi


mlrd. so'mda

	2023-yil	2024-yil	Ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	3 296,7	4 354,7	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	144,7	195,4	4,5
Andijon	174,5	215,2	4,9
Buxoro	119,1	148,2	3,4
Jizzax	113,2	163,9	3,8
Qashqadaryo	207,3	231,9	5,3
Navoiy	147,2	254,8	5,9
Namangan	195,2	225,5	5,2
Samarqand	202,7	294,5	6,8
Surxondaryo	180,6	187,9	4,3
Sirdaryo	91,0	275,0	6,3
Toshkent	357,1	488,8	11,2
Farg'ona	250,3	311,2	7,1
Xorazm	125,0	149,0	3,4
Toshkent sh.	988,4	1 213,4	27,9

2024-yilning yanvar oyida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (1 213,4 mlrd. so'm), Toshkent viloyati (488,8 mlrd. so'm), Farg'ona viloyati (311,2 mlrd. so'm) va Samarqand viloyatida (294,5 mlrd. so'm) qayd etildi.


Yillar kesimida yangi qurilish ishlari

jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so'm




2024- yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

O‘sinh sur’ati



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo‘jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo‘ljallangan obyektlar kiritiladi.




4 448,1
mlrd. so‘m

**Bino va inshootlar
qurish**



1 343,1
mlrd. so‘m

**Fuqarolik
obyektlarini qurish**



880,2
mlrd. so‘m


**Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari**

2024-yilning yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 66,7 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 123,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 20,1 % ulushni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 127,3 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 13,2 % ulushni va 2023-yilning mos davriga nisbatan 128,0 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar oyida
bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha



Jami bino va inshootlarni qurish - 4 448,1 mlrd. so'm


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 10,2 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,0 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,1 % punktga kamayib 57,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga kamayib, 31,9 % ni tashkil etdi.

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi.

2024- yilning yanvar oyida bino va inshootlar qurilishi




Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 85,3 % i), Navoiy viloyati (79,0 %) va Farg'ona viloyati (76,4 %)da kuzatildi.



85,3 %

Jizzax viloyati



79,0 %

Navoiy viloyati



76,4 %


Farg'ona viloyati




2024- yilning yanvar oyida
fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha




Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy sektor




Jami fuqarolik obyektlarini qurish - 1 343,1 mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 25,7 % ni tashkil etdi va 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,9 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 74,1 % ni tashkil etib 9,0 % punktga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi, 0,2 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

2024- yilning yanvar oyida fuqarolik obyektlarini qurish



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sirdaryo viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 59,9 % i), Samarqand viloyati (49,8 %) va Buxoro viloyati (27,3 %)da kuzatildi.



Sirdaryo viloyati




Samarqand viloyati



Xorazm viloyati

2024- yilning yanvar oyida
ixtisoslashtirilgan qurilish asosiy ko‘rsatkichlari
Korxonalar turlari bo‘yicha




Jami ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari - 880,2 mlrd. so‘m

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning mos davriga nisbatan 16,8 % punktga ko‘paydi va 32,9 % ni tashkil etdi. Qolgan 67,1 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 16,8 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo‘yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog‘ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o‘z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Toshkent shahri (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 20,9 % i), Namangan viloyati (20,0 %) va Qashqadaryo viloyatida (19,1 %) kuzatildi.



20,9 %

Toshkent sh.



20,0 %

Namangan viloyati




19,1 %

Qashqadaryo viloyati


2024- yilning yanvar oyida korxonalar turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so‘mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy sektor


2023-yilning mos davri
bilan solishtirganda –
200,8 %

2023-yilning mos davri
bilan solishtirganda –
117,2 %


2023-yilning mos davri
bilan solishtirganda –
111,7 %



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan
2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish
ishlarining asosiy ko'rsatkichlari
jamiga nisbatan ulushi



2023- y.




2024- y.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 089,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 200,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 6,0 % ga kamayib, 16,3 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

*Jami yirik qurilish
tashkilotlari tomonidan bajarilgan
qurilish ishlari hajmi* - **1 089,4 mlrd. so'm**

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish
ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi
oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so'm




2024- yilning yanvar oyida yirik
qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar
Hududlarning kesimida




Ma'lumot uchun:

yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Sirdaryo viloyatida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 40,5 %i), Navoiy viloyatida (26,7 %) va Toshkent viloyatida (25,7 %) qayd etildi.




Jamiga nisbatan ulushi



Sirdaryo viloyati




Navoiy viloyati




Toshkent viloyati

**Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan
2024-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish
ishlarining asosiy ko‘rsatkichlari**
jamiga nisbatan ulushi



2023- y.



2024- y.

2024-yilning yanvar oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 62,4 % i to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 4,6 % punktga kamaydi.


Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 117,2 % ni tashkil etgan holda 4 162,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

**Jami kichik korxona va mikrofirmalar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari
hajmi**

- 4 162,5 mlrd. so‘m

**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish
ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi**


oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m



**2024- yilning yanvar oyida kichik korxona
va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**
Hududlar kesimida



Ma'lumot uchun: ko'rib
chiqilayotgan davrda kichik
korxonalar va mikrofirmalar
tomonidan bajarilgan qurilish
ishlarining eng katta hajmi
Toshkent shahriga (1 550,5
mlrd. so'm), Toshkent viloyati
(349,9 mlrd. so'm), Farg'ona
viloyatiga (254,3) to'g'ri keldi.



mlrd. so'm
o'sish sur'ati

Jamiga nisbatan ulushi



Namangan viloyati




Andijon viloyati




Surxondaryo viloyati

**2024- yilning yanvar oyida qurilish
ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor**
Jamiga nisbatan ulushi



2023- y.




2024- y.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 21,3 % ni yoki 1 419,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 111,7 % ga yetdi.

Shundan 1 091,9 mlrd. so‘mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to‘g‘ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 116,6 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 167,3 mlrd. so‘mni va 89,9 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta‘mirlash ishlari 160,3 mlrd. so‘mni va 107,7 % ni tashkil etdi.

**Norasmiy sektor qurilish ishlarining yillar kesimidagi
dinamikasi**


oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so‘m



2024- yilning yanvar oyida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor *Hududlar kesimida*



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (298,4 mlrd. so'm), Toshkent viloyatida (195,9 mlrd. so'm) va Qashqadaryo viloyatida (126,8 mlrd. so'm) qayd etildi.



Jamiga nisbatan ulushi



Jizzax viloyati




Xorazm viloyati



Qashqadaryo viloyati


HUDUDLAR KESIMIDA



● mlrd. so'm ● o'sish sur'ati

Mulkchilik shakli davlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so'm



Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xorazm viloyatida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 6,6 % i), Navoiy viloyatida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 6,4 % i) va Buxoro viloyatida (ushbu hududagi umumiy qurilish ishlarining 6,0 % i) qayd etildi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

Mulkchilik shakli nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2 221,4
mlrd. so'm

▲ 123,3 %

Toshkent sh.

723,3
mlrd. so'm

▲ 149,1 %

Toshkent
viloyati

411,8
mlrd. so'm

▲ 116,0 %

Farg'ona
viloyati

386,9
mlrd. so'm

▲ 121,2 %


Qashqadaryo
viloyati

371,5
mlrd. so'm

▲ 127,5 %

Samarqand
viloyati

2024-yil YANVAR : 6 509,1 mlrd. so'm



Hududlar kesimida

Ma'lumot uchun: davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Toshkent shahrida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,9 % i), Surxondaryo viloyatida (ushbu hududagi qurilish ishlari umumiy hajmining 98,7 % i) Toshkent viloyatida (ushbu hududagi umumiy qurilish ishlarining 98,4 % i) qayd etildi

● mlrd. so'm ▨ o'sish sur'ati

Jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. so'm

5 114,1

95,3 %

2020-y.

5 598,3

95,5 %

2021-y.

6 651,9

96,6 %

2022-y.

4 825,8

96,3 %

2023-y.

6 509,1

97,6 %

2024-y.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi
Tel. 71 203-80-00 (1161)